

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

NamMQL
O'quv-uchkubiy boshqarma
№ 92
« » 20 y.



“Tasdiqlayman”
Namangan muhandislik-
qurilish instituti rektori
Sh. T. Ergashev

IQTISODIYOT NAZARIYASI 1,2
FANNING O'QUV DASTURI

Bilim sohalari:	400 000 -	Biznes, boshqaruv va xuquq
Ta'lim sohalari:	410 000 -	Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishlari:	60410100 -	Iqtisodiyot *
	60410200 -	Buxgalteriya hisobi
	60410800 -	Menejment

Namangan – 2024 yil

Fan/modul' kodi IQN11210	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1-semestr 2-semestr	Kreditlar Jami kreditlar 1-semestr - 5 2-semestr - 5
Fan/modul' turi Majburiy fanlari	Ta'lim turi O'zbek	Haftadagi dars soatlari 5	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil Ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Iqtisodiyot nazariyasi 1,2	Jami - 150 1-semestr m 36/ a 38 2-semestr m 38/ a 38	150 Kurs ishi 1 Jami - 300 1-semestr - 150 2-semestr - 150
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiyotdagi asosiy tushuncha va kategoriyalarni, iqtisodiy qonunlar va printsiplarni o'rgatish hamda amaliyotda ularni qo'llay olish xususiyatini shakllantirishdan iborat Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini o'rgatish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali iqtisodiy muammolarni echish yo'llarini topa olish qobiliyatini shakllantirish. Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: <ul style="list-style-type: none"> > iqtisodiy atamalar, kontsepsiya va nazariyalarini bilish va tushunishni o'rgatish; > iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalana olishni o'rgatish; > iqtisodiy taxlil qila olishni o'rgatish; > iqtisodiy g'oyalarni yozma ravishda mantiqiy va aniq tasvirlashni o'rgatish; > iqtisodiy tadqiqot olib borishda iqtisodiy kontseptsiyalarni qo'llay olishni o'rgatish. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-semestr uchun mavzular 1-mavzu. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va bilish usullari Iqtisodiyot tushunchasi, uning tarkibi va tuzilishi. Iqtisodiy faoliyat va takror ishlab chiqarish jarayoni. Iqtisodiyotning bosh masalasi va uning ikki tomoni: Iqtisodiyot fanining predmeti. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar. Iqtisodiy qonunlarning turkumlanishi. Iqtisodiyot fanining vazifalari. Iqtisodiyot nazariyasining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Iqtisodiy qonunlar va jarayonlarni ilmiy bilishning usullari. Ehtiyojlarning mazmuni va ularning turkumlanishi. Iqtisodiy resurslarning mazmuni va uning turlari. 2-mavzu. Iqtisodiyot nazariyasi fanining shakllanishi va rivojlanishida iqtisodiy ta'limlarning o'рни Iqtisodiyotga oid bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi. Qadimgi Sharq va G'arb xalqlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida		

shakllanishidagi asosiy oqimlar: merkantilizm, fiziokratlar, ingliz klassik iqtisodiy maktabi, marksizm va marjinalizm. Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasidagi asosiy oqimlar.

3-mavzu. Klassik davrgacha bo'lgan qadimgi iqtisodiy ta'limotlar. Merkantilizm iqtisodiy ta'limoti

Iqtisodiy fikr, g'oya, qarash, ta'limotlarning paydo bulishi va rivojlanishining tarixiy jarayoni. Qadimgi Sharq davlatlari iqtisodiy taraqqiyotining muammolari, xususiyatları. Qadimgi Bobil davlatining g'oyalari. Qadimgi Misrdagi iqtisodiy g'oyalari.

Hamurabi qonunlari. Qadimgi Xindistonning iqtisodiy g'oyalari. Manu qonunlari. "Artxashastra" traktati. Qadimgi Xitoy iqtisodiy fikrlari. Konfutsiychilar va legistlarning ta'limoti. Guan-tsi traktatlari. Ilk sotsial (ijtimoiy) utopiyalar. Zardushizm (Ovesta)dagi iqtisodiy g'oyalar.

Qadimgi Gretsiya iqtisodiy qarashlari. Ksenofont. Afloton (Platon)ning iqtisodiy g'oyalari. Aristotelning iqtisodiy qarashlari. Qadimgi Rimning iqtisodiy konsetsiyalari. Ilk merkantilizm monetar tizimi. Tomas Mann (Angliya), Kolbertizm, Monkreten (Fransiya). David Hyumaning iqtisodiy qarashlari. Merkantilizm va proteksionizm siyosatining ayrim mamakatlardagi ko'rinishi: Italiya merkantilizmi, Angliya- proteksionizmi, Fransiya-kolbertizmi. Merkantilizmning tarixiy taqdiri.

4-mavzu. O'rta asrlar iqtisodiy qarashlari.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy qarashlari. Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy siyosatning xozirgi davr uchun ahamiyati. Marginoniymning iqtisodiy fikrlari. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino asarlaridagi iqtisodiy fikrlar. Yusuf Xos Xojib va Rab'uzziy g'oyalarning xozirgi davrdagi ahamiyati. Amir Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy g'oyalar va iqtisodiy siyosat. Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy siyosatning xozirgi davr uchun ahamiyati.

5-mavzu. Klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi, rivojlanishi va yakunlanishi

Klassik iqtisodiy maktab vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari. Uilyam Petti asarlari, uning merkantilizmga munosabati. Per Buagiberning qiymat talqini, iste'mol va ayirboshlash qiymati, pulga munosabat. Fiziokratizm. Fransua Kene asarida merkantilizmni tanqid qilinishi. Fiziokratlarning iqtisodiy dasturi. «Tabiiy tartib» konsepsiyasi. Kenening bosh asari «Iqtisodiy jadval»da ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining tahlil yetilishi va uning ahamiyati. Fiziokratlar iqtisodiy ta'limotining ahamiyati va tarixiy taqdiri.

A.Smit asarlarida klassik maktab g'oyalarning yanada rivojlanirilishi. Rikardo modeli, davriy muammolar: don qonuni, tabiiy qurol va javobgarlik. T. Maltus nazariyalari. J.S.Mill va uning qarashlari. J.B.Sey va uning metodologiyasi. F. List va uning «Siyosiy iqtisod» sistemasi. Germaniyadagi tarixiy maktabning asoschilari Sismondi, Prudon va Rodbertus. Karl Marks va uning klassik iqtisodiyot haqidagi tanqidiy fikrlari.

6-mavzu. Marjinalizm iqtisodiy ta'limoti

Jevons, Menger va ularning me'yoriy tahlil asoslari. Marjinal taxlilning kengayishi: keyingi marjinalizm. Marjinal unumdorlik nazariyasi. Unumdorlikning

pasayib borish qonuni. Maxsulotning tugallanishi. Viksel tavor mahsulot haqida. Me'yoriy unumdorlik nazariyasining ahloqiy tomonlari. Me'yoriy unumdorlik bandlik nazariyasi sifatida. Me'yoriy unumdorlik nazariyasining tanqidi. Foyda va foiz. Kapital va foiz nazariyasi. Foiz muammosi. Bem Baverkning foiz nazariyasi. Fisher foiz haqida

7-mavzu. Neoklassik maktab iqtisodiy qarashlari. Keynes va keynschilik ta'limoti

Kembrij maktabi yoki yangi klassik (neoklassik) yo'nalish. Marshall uslub. Valras va umumiy muvozanat nazariyasi. Valrasning umumiy muvozanat qonuni. J.B.Klarkning iqtisodiy ta'limoti. Uning «Boyluk falsafasi» va «Boyluk taqsimoti» asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. V.Paretoning umumiy iqtisodiy muvozanat konsepsiyasi.

Keyns ta'limotining asosiy va yangi G'oyasi, bozor iqtisodiy munosabatlari tizimi mukammal va o'z-o'zini avtomatik ravishda tartibga solma olinishi. Maksimal darajada bandlikni va iqtisodiy o'sishni davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi ta'minlay olishi. Etakchi olimlar (J.K. G'elbreyt, M.Blaug), firmalar, monopoliya va oligopoliyalar faoliyatidagi tengsizlik nisbatan kichik doiradagi odamlarning faoliyati bilan bog'liqlik, bu tengsizlik prinsipi davlatning aralashuvi bilan tuzatilishi kerakligi.

8-mavzu. Monetarizm. Institutsonalizm. Neoliberalizm

Monetarizm nazariyasining mohiyati. Milton Fridmen va uning monetar nazariyasi. Monetarizmning asosiy qoidalari. Irving Fisher-ning ayirboshlash tenglamasi. M. Fridmenning pul qoidasi. Monetar konsepsiyasining keynschilikdan farqi. Paul Samuelson: Muvozanat va barqarorlik. Fridman va mikroiqtisodiyotga yaqinlashuv. Neoklassik va zamonaviy mikroiqtisodiy o'rtasidagi o'zaro farq. Institutsonalizmning asosiy xususiyatlari, evolyutsiyasi. T.Veblen g'oyalari. «Bekorchi sinflar nazariyasi» asaridagi iqtisodiy g'oyalar. J.R.Kommons qarashlari. U.K.Mitchell g'oyalari. J.K.Gelbreytning iqtisodiy qarashlari. Nomukammal bozor ta'limotlari. Chamberlen monopolistik rakobat to'g'risida. J.Robinsonning nomukammal raqobat nazariyasi. Monetarizm va neoliberalizm evolyutsiyasi. Fridmaning monetar maktabi. Xayek va Mizesning sotsialistik iqtisodga munosabati. Neoliberalizmning paydo bo'lishi va uning o'ziga xos xususiyati, belgilari. Lyudvig fon Mize neoliberalizmi. Fridrix Fon Xayekning ijtimoiy-iqtisodiy g'oyalari.

Valter Oyklen — iqtisodiy tizim tiplari to'g'risida. Lyudvig Erdxardning iqtisodiy islohotlari.

9-mavzu. Ishlab chiqarish jarayoni, uning natijalari va samaradorligi

Ishlab chiqarish omillari va ularning turkumlanishiga turlicha yondashuvlar. Ishlab chiqarish omillari to'g'risidagi nazariyalar.

Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni va uning iqtisodiy asoslari. Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi. Ishlab chiqarish jarayonining ikki tomoni. Qisqa va uzoq davrda ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi. Ishlab chiqarishning jamiyat hayotidagi ahamiyati. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning o'zaro bog'liqligi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning yegri chizig'i. Ishlab chiqarish funksiyasi. Keyingi qo'shilgan omil unumdorligi. Unumdorlikning pasayib borish qonuni. Ishlab chiqarishning mikro va makro darajasi. Ishlab chiqarish samaradorligi.

uning ko'rsatkichlari va hisoblash usullari. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari va omillari.

10-mavzu. Iqtisodiy tizim modellari

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlarini bilishga turli xil yondashuvlar: formatson, madaniylashgan, mulkiy, texnologik industrial, taraqqiyot va iqtisodiy rivojlanish hamda sikllik rivojlanish, darajasi jihatidan yondashuv. Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari. Ishlab chiqarish usuli. Ijtimoiy-iqtisodiy formatiya. Ishlab chiqarishning texnologik usuli. Oddiy kooperatsiya, manufaktura va yirik mashinalashgan ishlab chiqarish. Industirlashishgacha bo'lgan jamiyat, industirlashgan jamiyat, yuqori industirlashgan (axborotlashgan) jamiyat.

Iqtisodiy tizim tushunchasi. Iqtisodiy tizim modellari: an'anaviy iqtisodiyot, buyruqli iqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti. Bozor iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari: erkin raqobatga asoslangan va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti.

11-mavzu. Mulkiylik munosabatlari

Mulkiylik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni. Mulkiy obyekt va subyekti. Mulkiylikning iqtisodiy va huquqiy jihatlari.

Mulkiylik shakllarini o'zgartirish usullari: milliy lashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish. Davlat mulkini xususiy lashtirishning usullari. O'zbekiston Respublikasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish jarayonini amalga oshirish bosqichlari.

12-mavzu. Tovar-pul munosabatlari

Ijtimoiy xo'jalik shakllari. Natural va tovar ishlab chiqarish, ularning belgilari va farqlari. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanishi sabablari. Iqtisodiy ne'mat, mahsulot, tovar va xizmat tushunchalari mazmuni. Tovar va uning xususiyatlari. Tovarining nafilligi. Tovar qiymatining miqdori. Nafillik turlari. Keyingi qo'shilgan miqdor nafilligi nazariyasi. Umumiy va aniq nafillik. Nafillikning pasayib borishi. Mehnat unumdorligi va intensivligining tovar qiymati miqdoriga ta'siri.

Qiymatning mehnat nazariyasi. Qiymat qonuni. Tovar qiymatining farqlanishi shart-sharoitlari. Qiymat paradoksi.

Pulning kelib chiqishi va mazmuni. Pul to'g'risidagi metallistik, nominalistik va miqdoriy nazariyalar. Pulning vazifalari: qiymat o'lchovi, muomala vositasi, jang'arish vositasi, to'lov vositasi. Hozirgi zamon pulining tabiati va mazmuni. Oltin va qog'oz pullarning o'zaro bog'liqligi. Naqd va kredit pullarning xususiyatlari.

13-mavzu. Bozor iqtisodiyoti. Bozor va uning tuzilishi

Bozor iqtisodiyotining subyektlari: uy xo'jaliklari, tadbirkorlik va davlat sektori. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari. Bozor tizimining o'z-o'zini tartibga soluvchi mexanizmi. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti, ularning umumiy tomonlari va farqlari. Zamonaviy bozor xo'jaligi modellari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida doimiy muammolarni hal qilish va resurslardan samarali foydalanish yo'llari. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari. Resurslarni taqsimlashning samaradorligi.

14-mavzu. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning rivojlanishi.

Iqtisodiy faoliyat va tanlov yerkimligi. Iqtisodiy manfaatlarining ta'minlanishi. Bozor iqtisodiyotining ziddiyatlari va salbiy jihatlari. O'tish davri va O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish hususiyatlari

Harakatlar strategiyasining hozirgi bosqichida O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishning ustivor yo'nalishlari

Bozor tushunchasi va uning asosiy belgilari. Bozor mexanizmi. Bozorning obyektleri va subyektlari. Bozorning vazifalari. Bozorning turkumlanishi. Resurslar, mahsulotlar, daromadlarning doiraviy aylanish modeli va uning turlari. Bozor infratuzilmasi. Bozor infratuzilmasi turlari. Bozor infratuzilmasi tarkibi.

15-mavzu. Talab va taklif nazariyasi

Talab tushunchasi. Individual talab va bozor talabi. Talab qonuni. Giffen samarasi. Talab egri chizig'i. Talab miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar: tovarlar narhi, iste'molchi didi, bozordagi iste'molchilar soni, ularning pul daromadi, o'rni bosuvchi tovarlar narxi, kelajakda narx va daromadlar o'zgarishining ehtimoli. Oliy va past toifali tovarlar. Taklif tushunchasi. Taklif qonuni. Taklif egri chizig'i. Taklif miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar: resurslar narxi va umumdorligi, ishlab chiqarish texnologiyasi, soliqlar va subsidiyalar, boshqa tovarlar narxi, narx o'zgarishining kutilishi, ishlab chiqaruvchilar soni. Iqtisodiy resurslarga talab va taklifning xususiyatlari.

Talab va taklif miqdorlarining mos kelishi. Qisqa va uzoq davrlarda talabning o'zgarishi. Bozor muvozanati. Xususiy va umumiy muvozanatlik. Talab va taklif yegiltuvchanligi va ularni belgilab beruvchi omillar.

16-mavzu. Narx va uning shakllanishi

Narxning mazmuni va uning obyektiv asoslari. Narx to'g'risidagi turli nazariyalar. Tovar xususiyatlarining narxlarda ifodalanishi. Narxning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxning vazifalari. Narx turlari: ulgurji va chakana narxlar. Nuftuzli, demping va dotatsiyalangan narxlar. Shartnomaviy, yerkin va tartibga solinuvchi narxlar. Hududiy, milliy va jahon bozori narxlari. Narx diapazoni. Narx pariteti.

Narx tashkil topishining bozor mexanizmi. Sof raqobat sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari. Sotuvchi va xaridor narxlari. Monopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Umumiy taklif bo'yicha narx o'zgarishi. Monopsoniya sharoitida narxning shakllanishi. Umumiy talab bo'yicha narxning o'zgarishi. Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Narx siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari. Narxlarni yerkinlashtirish yo'llari va bosqichlari.

17-mavzu. Raqobat va monopoliya.

Raqobatning mohiyati va obyektiv asoslari. Raqobatning turlari: tarmoq raqobat, oligopoliya va sof monopoliya. Raqobat shakllari: sof raqobat, monopolistik raqobat, oligopoliya va sof monopoliya. Raqobatlashish usullari: narx vositasida va narxsiz raqobat. G'irrom va halol raqobat. Demping narxlarni qo'llash. Raqobat kurashining zamonaviy shakllari: mahsulot sifatini oshirish, mahsulotni yangilash, xizmat sifati, reklama, servis, marketing va h.k.

Monopoliyaning mohiyati va uning vujudga kelishi sabablari. Kapitalning to'planishi va markazlashuvi. Monopoliyalarning turlari: iqtisodiy va tabiiy

monopoliyalar. Legal va sun'iy monopoliyalar. Lerner ko'effitsienti. Monopoliyalarning afzalliklari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Shumpeter gipotezasi.

O'zbekistonda raqobat muhitining kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar. Antimonopol qonunchilikning vujudga kelishi. Sherman akti-1980. Kleyton Akti-1914. Federal savdo Komissiyasi dalolatnomasi-1914. Sellar Kefauver akti-1950. Monopoliyaga qarshi siyosat. Davlatning tabiiy monopoliyaga qarshi tadbirlari. Monopoliyaga qarshi qonunchilikning shakllanishi. Monopolistik korxonalarni tartibga solish usullari. Monopoliyaga qarshi siyosatning natijalari.

18-mavzu. Omilli daromadlar va ish haqining shakllanishi.

Mehnat haqi. Ish haqi to'g'risida turlicha nazariyalar. Ish haqining mohiyati va iqtisodiy mazmuni. Nominal va real ish haqi. Real ish haqining darajasi va o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Ish haqining taqabalanishi. Ish haqini tashkil qilish shakllari va tizimlari. Tarif tizimi. Minimal ish haqi.

Mehnat munosabatlari. Mehnat shartnomalari. Kasaba uyushmalarining tadbirkorlar va davlat bilan o'zaro munosabatlari. Kasaba uyushmalarining ish haqi darajasini oshirish yo'llari. Ishchi kuchi talabi va taklifini o'zgartirish. Kasb bo'yicha malaka darajasini litsenziyalash. Jamoa shartnomalari va ijtimoiy sug'urta tizimi. Mehnat munosabatlari tartibga solishda davlatning roli.

2-semestr uchun mavzular

19-mavzu. Ishchi kuchi bozori va bandlik

Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchiga talab va taklif hamda uni aniqlovchi omillar. Ishchi kuchi bozorining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari. Fillips yegri chizig'i. Ishchi kuchini takror hosil qilish. Ishchi kuchining miqdoriy aniqlanishi va sifat o'lehamlari. Nuftus qonuni. Aholining tabiiy o'sishi. Ishchi kuchi migratsiyasi va uning shakllari.

Ishchi kuchi bandligi to'g'risida turli xil nazariyalar. O'zbekistonda ishchi kuchi bandligini ta'minlash va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash borasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.

20-mavzu. Iste'molchining iqtisodiy huluqi. Naflilik nazariyasi

Iste'molchi huluqi nazariyasi. Naflilik funksiyasi. So'ngi qo'shilgan naflilik. Naflilikni maksimalashtirish qoidasi. Iste'molchi muvozanati. Befarqlik egri chizig'i. Befarqlik xaritasi. Iste'molchi budjetining cheklanganligi. Budjet chizig'i. Narx va daromadlar o'zgarishining iste'molchi tanloviga ta'siri. Naflilik, yalpi naflilik va keyingi naflilik tushunchalari. Iste'molchining afzal ko'rishi qoidasi. So'ngi qo'shilgan naflilikning pasayib borish qonuni. Yalpi (umumiy)naflilik va keyingi naflilik o'rtasidagi farq. Iste'molchi tanlovidagi befarqlik holati. Narx o'zgarishining budjet chizig'iga ta'siri.

21-mavzu. Tadbirkorlik faoliyati va tadbirkorlik kapitali

Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va iqtisodiy mazmuni. Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish shart-sharoitlari. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari: davlat, jamoa, xususiy, aralash va boshqa hosila shakllari. Kooperativ, xususiy va yakka tartibdagi tadbirkorlik. Korxonalar tadbirkorlik faoliyatining asosiy va boshlang'ich

bo'g'ini. Aksiyadorlik jamiyati va aksiyadorlik kapitali. Aksiya va uning turlari. Aksiya kursi. Dividend va ta'sislar foydasi. Aksiya nazorat paketi. Obligatsiyalar. Marketing, uning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Menejment korxonalarini boshqarish tizimi sifatida. Menejmentning maqsadi va vazifalari.

Tadbirkorlik kapitalining mohiyati. Tadbirkorlik kapitalining doiraviy aylanishi va uning bosqichlari. Tadbirkorlik kapitalining funksional shakllari: pul, umumiy kapital va tovar. Tadbirkorlik kapitali turli shakllarning doiraviy aylanishi xususiyatlari.

Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital, ularning farqli belgilari. Kapitalning aylanish vaqti va tezligi. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish: jismoniy va ma'naviy yeskirishi hamda qayta tiklanishi. Amortizatsiya va uning normasi. Jadallashgan amortizatsiya. Asosiy va aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligi va uning ko'rsatkichlari. Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

22-mavzu. Iqtisodiy harajatlardan foyda

Iqtisodiy harajat tushunchasi va uning turlari. Jamiyat va korxonalar harajatlari. Ishlab chiqarish harajatlarning mazmuni, tarkibi va turlari. Muomala harajatlari. Ichki va tashqi harajatlardan foydalanish. Doimiy va o'zgaruvchi harajatlardan foydalanish. Me'yordagi foyda. Doimiy, o'zgaruvchi va umumiy harajatlarning grafiki tasviri. O'rta harajatlardan foydalanish. O'rta harajatlarning yegri chizig'i. Keyingi qo'shilgan harajatlardan foydalanish. Harajatlarni minimallashtirish qoidasi. Qisqa va uzoq muddatli davrda ishlab chiqarish harajatlari. Ishlab chiqarish miqyosining ijobiy samarasi. Tannarx tushunchasi. Korxonalar (firma) ning pul tushumlari va foydasi. Harajatlardan foydalanish yegri chizig'i. Zarar ko'rmaslik nuqtasi. Umumiy foyda. Foydalanish tarkibi daromadlar yegri chizig'i. Zarar ko'rmaslik nuqtasi. Umumiy foyda. Foydalanish tarkibi topish bosqichlari. Foyda miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Yalpi foydalanish taqsimlanishi. Iqtisodiy foyda va buxgalteriya foydasining farqlanishi. Sof foyda. Foyda normasi va massasi hamda ularni hisoblash. Foyda normasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

23-mavzu. Agrar munosabatlar va rentaning nazariyasi

Agrar munosabatlar va ularning bozor tizimidagi o'rni. Yerning resurs sifatidagi o'ziga xosligi. Yerning tabiiy va iqtisodiy unumdorligi. Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning xususiyatlari. Yer mulkchilik va xo'jalik yuritish obyektini. Yerga egalik va yerdan foydalanish huquqi.

Yer rentasiga bo'lgan turli xil nazariy yondashuvlar va ularning tarixiy shakllari. Yer rentasining mazmuni va turlari: differensial renta, absolyut renta, monopoliya renta, undirma sanoat va qurilish uchastkalaridan olinadigan renta. Ijara haqi. Yerning narxi va uni belgilovchi omillar.

Agrar sanoat integratsiyasi. Agrar sanoat majmuasi va uning sohalarini. Agrar biznes va uning turlari. Dehqon va fermer xo'jaliklari. Agrofirma, agrar sanoat birlashmasi, agrar sanoat kombinatlari.

O'zbekistonda agrar islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari. Erlarning meliorativ holatini yaxshilash choralarini. Shaxsiy tomoqalarning kengaytirilishi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarkibiy tuzilishini takomillashtirish. Xo'jalik yuritishning samarali shakllarini rivojlantirish. Fermer xo'jaliklari yer maydonlari hajmini optimallashtirish. Qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmamini jadal rivojlantirish.

24-mavzu. Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari. Milliy iqtisodiyotning mazmuni va uning tuzilishi. Makroiqtisodiyot. Makroiqtisodiy tahlil va uning vazifalari. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

Milliy mahsulotning iqtisodiy mazmuni va uning harakat shakllari. Yalpi milliy mahsulot va yalpi ichki mahsulot. Nominal va real yalpi ichki mahsulot. Narx indeksi. Yalpi ichki mahsulotning tarkibiy tuzilishi. Sof milliy mahsulot, milliy daromad va shaxsiy daromad. Yalpi milliy daromad. Xufiyona iqtisodiyot, uning o'lchamlari va namoyon bo'lish shakllari.

25-mavzu. Milliy hisoblar tizimi

Milliy hisoblar tizimi. YalMni hisoblashga qo'shilgan qiymatlar bo'yicha yondashuv. YalMni hisoblashga sarf-xarajalar bo'yicha yondashuv. Uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari. Investitsion sarflar. Davlat sarflari. Chet elliklarning sarflari. YalMni hisoblashga daromadlar bo'yicha yondashuv. YalMni hisoblash usullarining atzalliklari va kamchiliklari. YalM va ijtimoiy farovonlik.

26-mavzu. Yalpi talab va yalpi taklif

Yalpi talab tushunchasi va uning tarkibi. Yalpi talab yegri chizig'i. Yalpi talab miqdoriga ta'sir etuvchi omillar: iste'mol sarflaridagi o'zgarishlar, investitsion sarflar, davlat sarflari, sof eksportdagi o'zgarishlar.

Yalpi taklif tushunchasi va uning tarkibi. Yalpi taklif yegri chizig'i. Yalpi taklif yegri chizig'idagi yotiq, oraliq va tik kesmalar. Yalpi taklif miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar: resurslar narxi va unumdorligining o'zgarishi, huquqiy me'yorlarning o'zgarishi.

Yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanat va uning o'zgarishi. AD-AS modeli. Yalpi talab va yalpi taklif yegri chiziqning kesishishi. Xrapovik samarasi. Milliy bozorning to'yinchanlik darajasi. Taqchillikning iqtisodiy tabiati va uni bartaraf qilish yo'llari.

27-mavzu. Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar

Iste'molning mazmuni va uning turlari. Shaxsiy, umumiy va ijtimoiy iste'mol. Iste'mol fondi va iste'molchilik surflari. Jamg'arma va uning maqsadi. Iste'mol va jamg'arma o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Iste'mol va jamg'arma darajasini belgilovchi omillar. Iste'mol va jamg'arma hajmiga daromaddan tashqari ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Iste'mol va jamg'armaga o'rtaacha va keyingi qo'shilgan moyillik va ularni aniqlash.

Iqtisodiy jamg'arishning mazmuni va uning manbalari. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadidagi jamg'arish. Jamg'arish normasi. Nominal va real jamg'arish.

Investitsiyalarning mazmuni va vazifalari. Investor va investitsion faollik tushunchalari. Investitsiyalarning manbalari va tuzilishi. Investitsiyalarga sarflar darajasini belgilovchi omillar. Yalpi va sof investitsiyalar. Yalpi investitsiya va amortizatsiya nisbati o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi nisbat. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning klassik va keynscha modellari, ular o'rtasidagi farqlar.

O'zbekistonda investitsion faoliyatni ta'minlash va uning shart-sharoitlari. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ichki investitsiyalarning o'rni va chet el investitsiyalarini jalb qilishning ahamiyati. Tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilishi.

28-mavzu. Iqtisodiy o'sish va milliy boylik

Iqtisodiy taraqqiyot va iqtisodiy rivojlanish tushunchalari mazmuni. Iqtisodiy o'sish uning mezon va ko'rsatkichlari. Iqtisodiy o'sish sur'ati. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari. Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Iqtisodiy o'sishning omillari. Yalpi talab va yalpi taklif o'zgarishining iqtisodiy o'sishga ta'siri. Iqtisodiy o'sishda taqsimlash omillarining o'zgarishining mahsulot o'sishini aniqlab beruvchi omillar.

Iqtisodiy o'sishning keynscha va neokeynscha modellari. Kobb-Duglas modelining mazmuni. R.Xarrod va E.Domar modellari. V.Leontevning xarajatlarnatijalar model. Nol darajadagi iqtisodiy o'sish konsepsiyasi. Innovatsion iqtisodiy o'sish. Milliy boylik va uning tarkibiy qismlari. Moddiy-buyumlashgan, nomoddiy (intellektual) va tabiiy boylik.

MHTda milliy boylikni aniqlashning o'ziga hosligi. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishi va iqtisodiy o'sish muammolari. Iqtisodiy o'sish samaradorligini ta'minlashda tejamkorlikning o'zgarishi. Tabiiy, moddiy va moliyaviy resurslardan tejab-tergab foydalanish yo'llari.

29-mavzu. Milliy iqtisodiyotning muvozanati

Iqtisodiy muvozanatlik tushunchasi. Umumiy iqtisodiy va xususiy muvozanatliklar. Turg'un va muttasil o'zgarib turuvchi muvozanatlik. Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlash usullari. Yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli. Tarmoqlararo balans, -harajat va -natija usuli. Retession va inflyatsion farq. Jang'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli. Multiplikator samarasi. Akselerator samarasi. Tejamkorlik paradoksli.

Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari. Mutanosibliklarning tasniflanishi. Mutanosibliklarni ta'minlash orqali milliy ishlab chiqarishning muvozanatli rivojlantirish maqsadlari.

O'zbekistonda iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, diversifikatsiyalash modernizatsiyalash asosida mutanosibli rivojlantirish. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirish natijalari. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlar. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha maqsadli loyihalarni o'z ichiga oluvchi uzoq muddatli dasturlarning ahamiyati.

30-mavzu. Makroiqtisodiy beqarorlik: inqiroz, ishsizlik, inflyatsiya

Iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosibliklar va ularning namoyon bo'lish shakllari. Iqtisodiyotning sikllari rivojlanishi. Iqtisodiy sikl fazalari. Sikllik tebranishlar. Iqtisodiy Sikl nazariyalari. Eksternal va internal nazariyalar. Sof monetar nazariya. Yetarlicha iste'mol qilmaslik nazariyasi. Jang'arish nazariyasi. Psixologik nazariya. Iqtisodiy sikl turlari.

